

OLIIY TA’LIM TIZIMIDA SIFAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI

Qudratbek Shavkat o’g’li Maxmudov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ta’lim sifatini ta’minlash bo’limi bosh mutaxassisi, p.f.f.d.
(PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21155992>

ANNOTATSIYA

Tezisdagi oliy ta’lim tizimida sifat madaniyatini shakllantirishning ustuvor yo’nalishlari o’rganilib, tahlil sifat madaniyati nazariyasi hamda yurtimizda so’nggi yillarda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o’rganishga asoslanadi. Sifat madaniyati strukturaviy-boshqaruv va madaniy-qadriyatlar elementlarining uyg’un birikmasi sifatida talqin qilinib, uni shakllantirishning bir nechta ustuvor yo’nalishlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, tezisdagi ushbu yo’nalishlarning me’yoriy-huquqiy asoslari va amalga oshirish shartlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: sifat madaniyati, oliy ta’lim, sifat ta’minoti, akkreditatsiya, milliy reyting, akademik mustaqillik, me’yoriy-huquqiy asos, ustuvor yo’nalish, sifat qadriyatlari.

PRIORITY AREAS FOR DEVELOPING A QUALITY CULTURE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

This thesis examines the priority areas for developing a quality culture in the higher education system. The analysis is based on a comparative study of the theory of quality culture and the regulatory legal documents adopted in our country in recent years. Quality culture is interpreted as a harmonious combination of structural-managerial and cultural-value elements, and several priority areas for its development are identified. The thesis also highlights the regulatory and legal foundations of these areas and the conditions for their implementation.

Keywords: quality culture, higher education, quality assurance, accreditation, national ranking, academic independence, regulatory and legal framework, priority area, quality values.

Kirish

Zamonaviy oliy ta’limda sifat ta’minoti tobora rasmiy nazorat tartibidan sifat madaniyatini shakllantirishga tomon siljimoqda. L.Harvi va B.Stensaker sifat madaniyatini tashkilotning sifatni doimiy oshirishga yo’naltirilgan madaniyati sifatida ta’riflab, uni rasmiy boshqaruv mexanizmlaridan kengroq tushuncha deb baholaydilar [7]. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi ta’rifiga ko’ra esa sifat madaniyati ikki elementdan, ya’ni strukturaviy-boshqaruv elementi va madaniy-psixologik (qadriyatlar) elementidan iborat [11]. G.Bendermaher va mazkur tadqiqotdagi hammualliflar liderlik va kommunikatsiya ushbu ikki elementni bog’lovchi asosiy omillar ekanligini ko’rsatganlar [8].

Mamlakatimizda ham oliy ta’lim sifatini ta’minlash bo’yicha keng ko’lamli me’yoriy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar belgilangan [1], oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tkazishda baholash mezonlari indikatorlari tasdiqlangan [3], oliy ta’lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish tartibi joriy etilgan [4], oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari qabul qilingan [2] hamda oliy ta’lim to’g’risidagi yangi nizom tasdiqlangan [5]. Mazkur hujjatlar sifat madaniyatini shakllantirish uchun mustahkam me’yoriy-huquqiy zamin yaratadi.

Sifat madaniyati tushunchasi va tarkibi

Sifat madaniyati tushunchasi sifatni belgilashning turli yondashuvlari bilan bog'liq bo'lib, L.Harvi va D.Grin sifatni mukammallik, maqsadga muvofiqlik, transformatsiya va boshqa indikatorlar orqali ta'riflashning beshta usulini ko'rsatganlar [9]. Keyinchalik sifat tushunchasi sifat madaniyati g'oyasiga kengaytirildi, ya'ni bugungi kunda sifat alohida nazorat funksiyasi emas, balki tashkilotning umumiy madaniyatidan kelib chiqadigan qadriyat sifatida talqin qilinadi [7; 10]. Sifat madaniyatining ikki elementli tabiati uni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, strukturaviy-boshqaruv elementi rasmiy tizimlar, jarayonlar va mezonlarni qamrab olsa, madaniy-qadriyatlar elementi jamoaning sifatga bo'lgan munosabati, ishonchi va majburiyatini ifodalaydi [8; 11]. G.Bendermaher boshchiligidagi boshqa bir tadqiqotning yo'l tahlili modelida ushbu ikki elementning o'zaro muvozanati sifat madaniyatining barqarorligini ta'minlashini asoslab berilgan [12]. Bundan kelib chiqadiki, sifat madaniyatini shakllantirish ustuvor yo'nalishlari ham har ikki elementni qamrab olishi kerak.

Sifat madaniyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari

Sifat madaniyati nazariyasi va sohaga oid tadqiqotlar tahlili sifat madaniyatini shakllantirishning oltita ustuvor yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yo'nalishlar har ikki elementni, ya'ni strukturaviy-boshqaruv va madaniy-qadriyatlar elementlarini qamrab oladi va 1-rasmda umumlashtirilgan. Muhimi shuki, yurtimizda hozirda olib borilayotgan keng ko'lamlı ta'lim islohotlari ushbu yo'nalishlarning aksariyatini rasmiy darajada tasdiqlaydi va qo'llab-quvvatlaydi.



1-rasm. Sifat madaniyatini shakllantirishning oltita ustuvor yo'nalishi

Sifat tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash. Birinchi yo'nalish sifat ta'minoti jarayonlarini muassasaning rasmiy tuzilmasi va boshqaruv tizimiga singdirishni nazarda tutib, bu sifat madaniyatining strukturaviy elementini hosil qiladi, ya'ni sifat siyosati, mas'ul tuzilmalar, ichki tartib-qoidalar va jarayonlar aniq belgilanadi. Institutsional mustahkamlash sifat ta'minotini tasodifiy tadbirlardan tizimli va doimiy jarayonga aylantiradi, bu esa sifat madaniyatining barqaror poydevori hisoblanadi.

Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv va rag'batlantirish. Ikkinchi yo'nalish sifatni boshqaruv qarorlari va rag'batlantirish tizimi bilan bog'lash bo'lib, sifat madaniyati faqat ichki hujjatlarda emas, balki resurslar taqsimoti, motivatsiya va natijalarni e'tirof etishda namoyon bo'lishi kerak. Natijaga yo'naltirilgan yondashuv professor-o'qituvchilar va

tuzilmalarni sifatni real oshirishga undaydi hamda sifat majburiyatini institutsional rag’bat bilan mustahkamlaydi.

Dalillarga asoslangan ichki sifat baholash va monitoring. Uchinchi yo’nalish sifatni aniq mezonlar va ishonchli ma’lumotlar asosida muntazam baholash va kuzatish hisoblanib, o’z-o’zini baholash, ichki audit va ko’rsatkichlar monitoringi sifat madaniyatining dalillarga asoslangan asosini yaratadi. Bunday monitoring sifatni doimiy takomillashtirish sikli bilan bog’lab, qaror qabul qilishni intuitsiyadan dalilga ko’chiradi.

Akademik mustaqillik va mas’uliyat uyg’unligi. To’rtinchi yo’nalish akademik mustaqillikni sifat uchun mas’uliyat bilan uyg’unlashtirishdir. Sifat madaniyati nazariyasiga ko’ra, sifat madaniyasiga o’tish nazorat va tartibga solishdan kengaytirilgan avtonomiya, ishonch va ta’limni rivojlantirishga tomon siljishni anglatadi [7]. Biroq mustaqillikning kengayishi sifat uchun mas’uliyatning o’sishi bilan birga kelmasa, u sifat madaniyatiga aylanmaydi. Shu sababli mustaqillik va hisobdorlikni muvozanatlash bu yo’nalishning markazida turadi.

Jamoa va talabalarni sifat qadriyatlariga jalb etish. Beshinchi yo’nalish sifat madaniyatining madaniy-psixologik elementini, ya’ni jamoaning sifatga bo’lgan ishonchi, qadriyatlari va majburiyatini shakllantirishga qaratilgan bo’lib, bizningcha, pedagogik boshqaruv va sifat madaniyatini uyg’unlashtirish orqali jamoaning sifatga bo’lgan majburiyatini oshirish mexanizmlari qo’llanishi lozim. G.Bendermaher boshchiligidagi izlanishlarda ham jamoaviy o’rganish, kasbiy rivojlanish va qo’llab-quvvatlash tarmoqlari sifat madaniyatini kuchaytirishning markazida turishi ko’rsatilgan [8]. Shuningdek, talabalarining ham sifat jarayonlariga jalb etilishi sifat madaniyatini umumiy qadriyatga aylantiradi.

Liderlik va sifat bo’yicha kommunikatsiya. Oltinchi yo’nalish liderlik va muloqotni sifat madaniyatining ikki elementini bog’lovchi mexanizm sifatida rivojlantirishdir. Mavzuga oid tadqiqotlarda liderlik va kommunikatsiya strukturaviy-boshqaruv hamda madaniy-psixologik elementlarni bir-biriga bog’lovchi hal qiluvchi omillar ekanligini aniqlangan bo’lib [8], kafedra va fakultet darajasidagi liderlar sifat qadriyatlarini namoyon etib, ochiq muloqot orqali jamoani sifat jarayonlariga safarbar qiladi.

Bizningcha, mazkur yo’nalishning har biri sifat madaniyatining muayyan elementiga xizmat qiladi.

Muhokama

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, sifat madaniyatini shakllantirishning aksariyat ustuvor yo’nalishlari strukturaviy-boshqaruv elementiga tegishli bo’lib, Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari aynan shu elementni jadal mustahkamlamoqda. Ta’lim sifatini ta’minlash bo’yicha qabul qilingan chora-tadbirlar [1; 5], akkreditatsiya va milliy reyting mexanizmlarining joriy etilishi [2; 3] hamda natijaga yo’naltirilgan boshqaruvga o’tish [4] sifat madaniyatining institutsional zaminini yaratmoqda hamda ushbu islohotlar ushbu yo’nalishlar davlat siyosati darajasida tasdiqlanganini ko’rsatadi.

Shuni ta’kidlash etish lozimki, sifat madaniyati nazariyasiga ko’ra, strukturaviy element o’zicha yetarli emas; u madaniy-qadriyatlar elementi bilan muvozanatlanishi kerak [7; 8]. Aks holda sifat ta’minoti rasmiy talablarni bajarishga va ortiqcha byurokratiyaga aylanib qolishi mumkin [13]. Shu sababli jamoa va talabalarni sifat qadriyatlariga jalb etish hamda liderlik va kommunikatsiya yo’nalishlari ayniqsa muhim hisoblanadi va aynan shu jihatlarni o’zimizning monografik tadqiqotimizda pedagogik boshqaruv orqali asoslashga harakat qilganmiz [6]. Ko’rinadiki, OTMLarda sifat madaniyatini shakllantirishning

samaradorligi nafaqat islohotlarni rasmiy bajarishga, balki rahbariyat va akademik jamoaning sifat qadriyatlarini ichki qabul qilishiga bog‘liq. Ushbu tahlilimizning cheklovi sifatida sifat madaniyatining madaniy-qadriyatlar elementini baholash sifat tadqiqot usullarini talab qilishini qayd etish lozim.

Xulosa

Tezisimizda oliy ta’lim tizimida sifat madaniyatini shakllantirishning yuqorida tahlilga tortilgan oltita ustuvor yo‘nalishi aniqladik. Ushbu yo‘nalishlar sifat madaniyatining ham strukturaviy, ham madaniy elementlarini qamrab oladi va olib borilayotgan ta’lim islohotlarida o‘z tasdig‘ini topadi. Sifat madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun strukturaviy-boshqaruv yo‘nalishlarini madaniy-qadriyatlar yo‘nalishi bilan muvozanatli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Aynan shunday yaxlit yondashuv sifat madaniyatini rasmiy talabdan institutsional qadriyatga aylantirib, oliy ta’lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlikni barqaror ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-7513052>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-8129755>
3. Oliy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida: 2025-yil 23-dekabrdagi 3732-son. URL: <https://lex.uz/docs/-7937311>
4. Oliy ta’lim tashkilotlari milliy reytingini yuritish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 2026-yil 28-fevraldagi 3783-son. URL: <https://lex.uz/docs/8067678>
5. Oliy ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida: 2026-yil 3-apreldagi 3807-son. URL: <https://lex.uz/docs/-8117474>
6. Maxmudov Q.Sh. OTMlarning xalqaro xaqobatbardoshligini oshirishda pedagogik boshqaruv va sifat madaniyati. Monografiya. -T.: “ZEBO PRINTS”, 2026. 176 b.
7. Harvey L., Stensaker B. Quality Culture: understandings, boundaries and linkages // European Journal of Education. 2008. Vol. 43, No. 4. P. 427-442. DOI: 10.1111/j.1465-3435.2008.00367.x.
8. Bendermacher G. W. G., oude Egbrink M. G. A., Wolfhagen I. H. A. P., Dolmans D. H. J. M. Unravelling quality culture in higher education: a realist review // Higher Education. 2017. Vol. 73, No. 1. P. 39-60. DOI: 10.1007/s10734-015-9979-2.
9. Harvey L., Green D. Defining Quality // Assessment and Evaluation in Higher Education. 1993. Vol. 18, No. 1. P. 9-34. DOI: 10.1080/0260293930180102.
10. Harvey L., Williams J. Fifteen Years of Quality in Higher Education // Quality in Higher Education. 2010. Vol. 16, No. 1. P. 3-36. DOI: 10.1080/13538321003679457.
11. European University Association. Quality Culture in European Universities: A Bottom-Up Approach. Brussels: EUA, 2006. 47 p.
12. Bendermacher G. W. G., oude Egbrink M. G. A., Wolfhagen I. H. A. P., Leppink J., Dolmans D. H. J. M. Reinforcing pillars for quality culture development: a path analytic model // Studies in Higher Education. 2019. Vol. 44, No. 4. P. 643-662. DOI: 10.1080/03075079.2017.1393060.
13. Sursock A. Examining Quality Culture Part II: Processes and Tools, Participation, Ownership and Bureaucracy. Brussels: European University Association, 2011. 50 p.